

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“KASB TA'LIMI” KAFEDRASI

O'QITUVCHISI

ATAEV JASUR ERKINOVICH

TOMONIDAN

“SOLIQ VA SOLIQQQA TORTISH”

FANIDAN ISHLAB CHIQILGAN

AMALIY DARS ISHLANMASI

Urganch-2010

Seminarli bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish usulida o'qitish texnologiyasi

Fakultet: "Iqtisodiyot" Kafedra: "Kasb ta'limi" (Buxgalteriya hisobi va audit)	O'quv predmeti: Soliq va soliqqa tortish	Mavzu raqami: 2- Mavzu Soatlar hajmi: 2 soat
Talabalar soni: __ ta	O'T Mualliflari: k.o'q. Abdullaev S., ass. Ataev J.E.	O'qituvchi: ass. Ataev J.E.
O'quv mashg'uloti shakli:	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish usulida	
Seminar mashg'uloti tuzilishining rejasi:	• O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi • O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati	
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	O'tiladigan mavzu to'g'risida yaxlit ma'lumot berish hamda amaliyotga qo'llash yuzasidan bilimlarga ega bo'lish.	
Pedagogik vazifalar: • Asosiy tayanch iboralarga to'xtalib batafsil ta'riflar berish; • Soliq siyosati va soliq mexanizmini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini ko'satib berish; • O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;	O'quv faoliyatining natijalari: • Iqtisodiy kategoriyalar mohiyatini anglab etadilar; • Soliq siyosati va soliq tizimi haqida umumiy tushuncha oladilar va mamlakatimizda soliq tizminida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishadilar; • O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rnishadi.	
O'qitish vositasi:	Ma'ruza matni, qog'ozlar va har-xil rangdagi marker, kompyuter texnologiyasi	
O'qitish metodi va shakli:	• Muammoli usul, amaliy topshiriq; • Guruhlarga bo'lingan holda.	
O'qitish shartlari:	Guruhiy ishlash uchun texnik jihozlangan auditoriya.	
Monitoring va baholash:	Og'zaki nazorat, tezkor so'rov va reyting bali asosida baholash	

**"O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati va soliq tizimi" mavzuida
tayyorlangan ma'ruzaning texnologik kartasi**

Bosqichlar	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
1-bosqich O'quv mashg'uloti mavzusiga kirish (10-daqiqa)	1.1. Fanning nomi e'lon qilinadi. Mavzudan hosil bo'lishi kutalayotgan natijalar qayd etiladi. 1.2. Ushbu mavzuga doir topshiriqlarni guruhlariga tarqatadi. 1-Ilova 1.3. Guruhlararo qanday ishlash lozimligi to'g'risida eslatma bilan tanishtiradi. 2- Ilova	Kayd etadilar O'qiydilar Ko'z yugurtirib chiqadilar
2-bosqich Asosiy bosqich (10 daqiqa)	2.1. Belgilangan mavzuning rejasi uning maqsadi, dolzarbligi va o'rganishdan kutalayotgan natijalar eshittiriladi. 2.2. Talabalarning nazariy olgan bilimlarini bir qancha savollarni bergan holda tekshiradi.	Tinglaydilar Faol qatnashib javob beradilar
3-bosqich Yakuniy bosqich (50 daqiqa)	3.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Topshiriqlarni har bir guruhga tarqatadi. Topshiriqni echayotganda qo'shimcha qanday materiallardan foydalanish lozimligi uqtiriladi. 3-Ilova 3.2. Guruhlarni tashkil etadi va nazoratchi sifatida guruhlarini tekshiradi. Ularga bir qancha savollar bilan murojaat qiladi. Jumladan, "Nega bunday usulni qo'llayapsiz?", "Nega shunday deb o'ylayapsiz?" 4-Ilova 3.3. Talabalarning faoliyatiga sharx beradi va aniq ma'lumotlar bilan ularni qurollantirib boradi. 3.4. Olingan natijalarni taqdimot qilishlarini e'lon qiladi.	O'quv materiali Bilan tanishib chiqadilar. Guruhlariga bo'linadilar. Topshiriqlarni echishga mustaqil yondashadilar. Bir-birlari bilan muhokama qiladilar. Tinglaydilar. Natijalarni bayon etishlari uchun guruh ichidan liderlarni tanlaydilar va taqdimotni boshlaydilar.
4-bosqich Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)	4.1. Guruhlarda echilgan natijalarni tahlil qiladi. 4.2. Olingan natijalarning sababiy bog'liqligi va oqibatlarini bayon etadi. 4.3. Keyingi darsda Insert usulidan foydalanib 3-mavzuni o'rganib kelishlarini eslatib qo'yadi.	

2.2.1-Ilova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruh	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotning to'laligi	Guruh ishtirokchilarining faolligi	Ma'lumotning taqdim etilishi	Jami
	Ball	0.5	0.25	0.25	1
1					
2					
3					

Guruh ishlarinn umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

0.86 – 1 ball – “a'lo”

0.71 – 0.85 ball – “yaxshi”

0.55 – 0.70 ball – “qoniqarli”

0 – 0.54 ball – “qoniqarsiz”

2.2.2-Ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Har bir kishi o'z guruhidagi talabaning fikrini mulozaat bilan eshitishi va uni bo'lmasligi lozim;
- Har bir kishi o'zi mustaqil berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak;
- Bir - birlaringizga kerakli paytda yordam qo'lingizni cho'zing;
- So'rab bilgan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim tamoyiliga amal qiling;

Esdan chiqarmang:

- Guruhning olgan bahosi bu sizning bahoyingiz!
- Kemaga tushganning joni bir!

Ekspert varag'i №1

Soliq siyosati deganda nimani tushunasiz

1. Soliq siyosati nima?
2. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli
3. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi.

Ekspert varag'i №2

O'zbekistonning soliq siyosati tarixi.

1. Birinchi bosqich. 1991-1994 yilllar
2. Ikkinchi bosqich. 1995-1997 yillar
3. Uchunchi bosqich. 1997 yildan hozirgacha bo'lgan davr.

Ekspert varag'i №3

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini shakllanishi

1. O'zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi
2. Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab necha guruhga bo'linadi
3. Qaysi soliqlar umumdavlat soliqlari hisoblanadi

Nazorat uchun savollar (o'qituvchining varianti):

1. Soliq va soliqqa tortish fanini o'qitishning ahamiyati.
2. Soliq siyosati deganda nimani tushunasiz?
3. Soliq tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli.
5. Hozirgi soliq siyosatining qanday bosqichlari mavjud.
6. Soliq mexanizmi nimani anglatadi?
7. Soliq mexanizmi tarkibiga nimalar kiradi?

**Guruhlar uchun
topshiriq**

1-topshiriq. Soliq va soliqqa tortish fanining oldida turgan savollarni izohlang. Soliq siyosati va soliq tizimini tushuntirib bering

2-topshiriq. Soliq siyosati va soliq mexanizmini isloh qilishining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

3-topshiriq. Soliq mexanizmi tushunchasi va uning tarkibi.